

## TEKNOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR: “SWOT” TAHLILI VA CASE STUDY METODLARI

*Hakimov Jo‘rabek Alisherovich*  
*Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani*  
*39-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining*  
*Texnologiya fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola umumta‘lim maktablarida “Texnologiya” darslarida zamonaviy innovatsion texnologiyalar, xususan “SWOT” tahlili hamda Case Study interfaol metodlaridan foydalanishning ahamiyati va shu asosda samarali natijalarga erishish yo‘llari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** texnologiya fani, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, “SWOT” tahlili hamda Case Study

Hozirgi vaqtda ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta‘lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An‘anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta‘lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta‘lim beruvchi tomonidan ta‘lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta‘lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta‘lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta‘lim jarayonining markazida ta‘lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta‘lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta‘lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:


- ta‘lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta‘lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e‘tiborga olinishi;

- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son Qarorida ko'rsatib o'tilganidek, "Texnologiya" darslarida o'quvchilar xalq hunarmandchiligi texnologiyasi haqida tushunchaga ega bo'lish, turli materiallardan yasaladigan buyumlarni o'lchay olish, rejalay olish, yelimlay olish, sodda loyihalay olish, ishlarini bajara olish; tabiiy va turli materiallarni bir-birida farqlay olish; turli materiallardan yasaladigan buyumlarni qurish-yasashda ishni ketma-ketlikda bajarish rejasini tuza olish; sodda buyumlarni tika olish; kichik hajmdagi buyumlarni to'qiy olish; o'tkir va tig'li asboblardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda foydalana olish kompetensiyalarini shakllantirishlari nazarda tutilgan. Bunda faqat ma'ruza yoki amaliy mashg'ulotlardan tashqari, yuqorida aytib o'tilgan interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Quyida shunday innovatsion texnologiyalarning bir nechtasi bilan yaqindan tanishib o'tamiz.

#### **"SWOT-tahlil" metodi**

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



Namuna: Muammoli ta'lim yondashuvlarining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Muammoli ta'lim yondashuvlarining kuchli tomonlari	
W	Muammoli ta'lim yondashuvlarining kuchsiz tomonlari	
O	Muammoli ta'lim yondashuvlarining imkoniyatlari (ichki)	
T	Muammoli ta'lim yondashuvlarini amalda qo'llashdagi to'siqlar (tashqi)	

### Case study (“Keys-stadi”) metodi

“Keys-stadi” – inglizcha soʻz boʻlib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “study” – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni oʻrganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u oʻquv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yoʻli sifatida qoʻllanilsa, metod xarakteriga ega boʻladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni oʻzida aks ettiradi.

### “Keys-stadi” metodini amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash.</li> </ul>
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash.</li> </ul>

3-bosqich: Keysdagi asosiy ✓ individual va guruhda ishlash;  
muammoni tahlil etish orqali ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;  
o‘quv topshirig‘ining ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni  
yechimini izlash, hal etish tahlil qilish;  
yo‘llarini ishlab chiqish. ✓ muqobil yechimlarni tanlash.

4-bosqich: Keys yechimini ✓ yakka va guruhda ishlash;  
shakllantirish va asoslash, ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash  
taqdimot. imkoniyatlarini asoslash;  
✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;  
✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy  
aspektlarini yoritish.

*“Keys-stadi” metodining o‘ziga xos xususiyatlari*

- izlanishga doir faoliyatning mavjud bo‘lishi;
- jamoaviy va guruhlarda o‘qitish;
- individual, guruhli va jamoaviy ish shakllari integratsiyasi;
- xilma-xil o‘quv loyihalarini ishlab chiqish;
- muvaffaqiyatga erishish uchun talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini rag‘batlantirish.

Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilar savollar bo‘yicha faoliyatni qamrab oladi:

- Kim? (Who?), Qachon? (When?), Qayerda?  
(Where?),  
Nima uchun? (Why?), Qanday?/ Qanaqa? (How?),  
Nima? (natija) (What?).

Keys. 6-7-sinf darsligiga yangidan kiritilgan bo‘limlar bo‘yicha ixtiyoriy tanlangan bitta mavzusi yuzasidan keys topshirig‘ini tuzing;

Bu keys asosida o‘tiladigan darsni loyihalashtiring;

U bo‘yicha taqdimot tayyorlang va uni namoyish eting.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida o‘quvchilarga intellektning har xil tiplarini jalb qilishni talab etadigan tajribalar orttirish imkoniyatini beradigan turli xil innovatsion ta’lim texnologiyalaridan, jumladan, “SWOT” tahlili va “Case Study” ta’lim texnologiyalaridan keng foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bunda hosil bo‘lgan muammoli vaziyatni yechish uchun topshiriqlar yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yoki muammoni aniqlab, yaqqol ifodalab berishga yoki amaliy topshiriqni bajarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279 b.
2. Tohirov O'.O. Texnologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. //Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017.-72 b.
3. Qo'ysinov O.A., Tohirov O'.O., Mamatov D.N., Aripova D.F. Mehnat ta'limi. 5-sinf. // O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.–T.:“Poytaxt-Print” MCHJ, 2016.-176 b.